

“UMS” MChJ Bosh direktorining  
”21” oktyabr 2024 yildagi 01/2119-II -son buyrug‘iga  
1-son Ilova

**“UNIVERSAL MOBIL SYSTEMS” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN  
JAMIYATINING SIFAT SOHASIDAGI SIYOSATI**

## **1. UMUMIY MA'LUMOT**

“Universal Mobile Systems” mas’uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o‘rinlarda “Kompaniya”) O‘zbekiston Respublikasining telekommunikatsiya operatori bo‘lib, MOBIUZ brendi ostida LTE, 4G, 5G UMTS va GSM standartlari bo‘yicha zamonaviy mobil aloqa va mobil Internetga kirish xizmatlarini ko‘rsatadi.

Kompaniya abonentlar va barcha manfaatdor tomonlarning talablariga javob beruvchi yuqori sifatli telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etib, mobil aloqa va mobil Internetga kirish bozoridagi o‘z pozitsiyalarini kengaytirishga intiladi.

## **2. KOMPANIYANING MISSIYASI**

*Bizning vazifamiz* - innovatsiyalar orqali kelajakka yo'l ko'rsatish, insonlarni bog'lash va raqamli dunyoda hamma uchun aloqada bo'lish, o'sish va ilhom olish uchun imkoniyatlar yaratishdir.

## **3. KOMPANIYA NIGOHIDA**

Kelajak sari Innovatsiyalar bilan insonlarni bog'lash.

## **4. QADRIYATLARIMIZ**

### **MIJOZLARGA E'TIBOR**

“Biz qilayotgan har bir ishimizning markazida mijozni qo'yamiz. Bizning yechimlarimiz, mahsulotlarimiz va xizmatlarimiz mijozlarimizning kutganlarini qondirishga qaratilgan. Biz ularning ehtiyojlarini diqqat bilan tinglaymiz va o'zaro aloqaning har bir bosqichida eng yaxshi tajribani taqdim etishga intilamiz”.

### **BIR JAMOA**

“Biz kompaniyaning kuchi birlikda ekanligiga ishonamiz. Biz bir-birimizni qo'llab-quvvatlaymiz, bir jamoa bo'lib ishlaymiz, umumiy maqsadlarga erishish va muvaffaqiyatli kelajakni yaratish uchun kuchlarni birlashtiramiz”.

### **RIVOJLANISH**

“Biz o'z biznesimizda eng yaxshi bo'lish uchun doimo o'rganamiz va rivojlanamiz. Biz birgalikda olg'a siljish va yangi cho'qqilarni zabt etish uchun xodimlarimizga, ularning malakasini oshirishga va martaba o'sishiga sarmoya kiritamiz”.

### **INNOVATSIYALIK**

“Bizning asosiy maqsadimiz har bir abonentga jahon amaliyotining eng zamonaviy yutuqlariga asoslangan telekommunikatsiya xizmatlarining to‘liq to‘plamini taqdim eta oladigan universal yuqori texnologik telekommunikatsiya tizimini yaratishdan iborat”.

### **SAMARADORLIK**

“Biz inson va moliyaviy resurslardan eng samarali foydalangan holda qisqa vaqt ichida maksimal natijalarga erishishni maqsad qilganmiz. Biz abonentlarimiz, hamkorlarimiz, davlat, xodimlarimiz va Kompaniya ta'sischisi manfaatlarining barqaror muvozanatiga erishishga intilamiz”.

## **5. BIZNESNI YURITISH TAMOYILLARI**

### **PROFESSIONALLIK**

“Bizning xodimlar telekommunikatsiya sohasida zarur ko‘nikma va malakalarga ega. Kompaniyamiz bilan ishlayotgan har bir kishi sifatli xizmat ko‘rsatilishi va telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanishda eng maqbul yechimni olishiga ishonchi komil bo‘lishi mumkin”.

## **ISHONCHLILIK**

“Biz so‘zimizning ustidan chiqamiz. Kompaniya mijozlar, hamkorlar, xodimlar va davlat idoralari bilan munosabatlarda rostgo‘ylik, ishonch va o‘zaro tushunishga asoslangan Ishbilarmonlik etikasining yuqori standartlariga har tomonlama amal qilgan holda benuqson obro‘- e‘tibor yaratishni maqsad qilgan”.

## **OCHIQLIK**

“Bizning faoliyatimiz mijozlar, hamkorlar, xodimlar, jamoatchilik va davlat bilan ochiq va samimiy munosabatlarga asoslangan. Biz o‘z salohiyatimizni to‘liq ro‘yobga chiqarish imkonini beruvchi eng murakkab amaliy takliflarni muhokama qilish uchun ochiqmiz”.

## **QONUNIYLIK**

“Biz jamiyatimiz manfaatlarini yo‘lida ishlaymiz, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligini hurmat qilamiz. Faoliyatimizni amalga oshirishda ham asossiz tavakkalchilik va shubhali kelishuvlarga yo‘l qo‘ymaymiz”.

## **6. RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI**

Kompaniyaning konteksti va vazifasidan kelib chiqib, rahbariyat va xodimlar sifat sohasida asosiy maqsad – abonentlar va manfaatdor tomonlarning bizga O‘zbekistonda barqaror raqobatbardosh pozitsiyalarga ega telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatuvchi yetakchi kompaniya sifatida ishonchni ta‘minlash va qo‘llab-quvvatlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Ishonchimiz komilki, biz abonentlarimizning ehtiyojlarini bilish, yuqori malakali mutaxassislar mehnati, doimiy ravishda yangi texnologiyalarni joriy etish va Kompaniya rivojiga tizimli yondashuv evaziga Kompaniya oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishamiz.

***Ushbu maqsadga erishish va uni amalga oshirish uchun Kompaniyada asosiy strategik yo‘nalishlar belgilab olingan:***

- Xizmatlar sifati va ishbilarmonlik etikasining yuqori standartlarini ta‘minlashga imkon beruvchi boshqaruv tizimini takomillashtirish;

- Zamonaviy marketing va PR usullarini joriy etish va rivojlantirish - strategik maqsadlarga muvofiq Kompaniya imijini, jamoatchilik bilan aloqalar tizimini, marketing strategiyalarini shakllantirish;

- Telekommunikatsiya infratuzilmasi va axborot texnologiyalarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish orqali kompaniya tomonidan ko‘rsatiluvchi xizmatlardan foydalanish imkoniyati va yuqori sifatini ta‘minlash;

- Xodimlar bilan ishlash usullari - jamoaviy ish, korporativ madaniyat, motivatsiya, malaka oshirish va yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishni doimiy ravishda takomillashtirish.

## **7. YUQORI RAHBARIYATNING MAJBURIYATLARI**

***Kompaniyaning yuqori rahbariyati quyidagilar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini anglaydi:***

– sifat menejmenti tizimiga oid barcha qonun va me‘yoriy talablarni qo‘llash bo‘yicha;

– abonentlar va manfaatdor shaxslarning barcha qonuniy talablarini Kompaniyaning texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda bajarish;

– sifat sohasida maqsad va vazifalarni belgilash;

– faoliyat, abonentlar va manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari, belgilangan maqsadlarni amalga oshirish, Sifat sohasidagi siyosatni doimiy yaroqlilikka muntazam tahlilini o‘tkazish;

– sifat menejmenti tizimini shunday tahlillar asosida tuzatuvchi harakatlar, sifat sohasidagi maqsad va vazifalarni belgilash orqali muntazam yaxshilash;

– Kompaniyaning barcha darajalarida Sifat sohasidagi siyosatni tushuntirish va uni amalga oshirish.